

**O'QUV MATERIALLARINING LEKSIK JIHATDAN
BOYLIGI VA O'QUVCHILARGA TA'SIRI**

Ibragimava Xurshida Axmadjon qizi

Namangan Davlat pedagogika Instituti

Ijtimoiy Fanlar fakulteti

O'zbek va xorijiy tillar kafedrasi talabasi

E-mail: ibragimovaxurshida04@gmail.com

Telefon: +998937102888

Annotasiya: Ushbu maqola o'quv materiallarining leksik jihatdan boyligi va uning o'quvchilarga ta'siri haqida chuqur tahlil o'tkazadi. O'quv materiallaridagi leksik boylik, til va nutq rivojlanishi uchun zaruriy omil bo'lib, o'quvchilarning savodxonligini oshirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va umumiyl bilim darajasini yuqori darajaga ko'tarishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada leksik boylikning ta'lif jarayonidagi o'mni, o'quvchilarning psixologik holatiga ta'siri, shuningdek, o'qituvchilar uchun qanday o'quv materiallarini tanlash va qanday metodlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltiriladi. O'quvchilar o'qish jarayonida turli xil leksik birikmalar, sinonimlar, antonimlar va frazeologizmlar bilan tanishish orqali, o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, bu jarayon o'quvchilarning o'zaro muloqotini kuchaytiradi va ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada, leksik jihatdan boy o'quv materiallari o'quvchilarning umumiyl rivojlanishi va ta'lif olish jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: O'quv materiallari, leksik boylik, ta'lif jarayoni, o'quvchilar, savodxonlik, til ko'nikmalari, psixologiya, o'qituvchi tavsiyalari, innovatsion yondashuvlar, interaktiv o'qitish usullari.

Annotation: This article conducts an in-depth analysis of the lexical richness of educational materials and its impact on students. The lexical wealth found in learning resources is an essential factor for the development of language and speech, playing a crucial role in enhancing students' literacy, fostering logical thinking skills, and raising their overall knowledge level. The article discusses the role of lexical richness in the educational process, its influence on students' psychological states, and offers recommendations for teachers on selecting appropriate learning materials and methodologies. Additionally, it presents innovative approaches and interactive teaching methods aimed at enhancing lexical wealth. Through exposure to various lexical combinations, synonyms, antonyms, and idiomatic expressions during the reading process, students are enabled to express their thoughts clearly and fluently. This process also strengthens their communication skills and develops their social

abilities. Consequently, lexically rich educational materials are of significant importance in enhancing students' overall development and the effectiveness of the learning process.

Keywords: Educational materials, lexical richness, educational process, students, literacy, language skills, psychology, teacher recommendations, innovative approaches, interactive teaching methods.

Аннотация: Эта статья проводит глубокий анализ лексического богатства учебных материалов и его влияния на студентов. Лексическое богатство, присутствующее в учебных ресурсах, является важным фактором для развития языка и речи, играя ключевую роль в повышении грамотности студентов, развитии логических навыков и увеличении их общего уровня знаний. В статье рассматривается роль лексического богатства в образовательном процессе, его влияние на психологическое состояние студентов, а также предлагаются рекомендации для учителей по выбору подходящих учебных материалов и методик. Кроме того, представлены инновационные подходы и интерактивные методы обучения, направленные на увеличение лексического богатства. Через знакомство с различными лексическими сочетаниями, синонимами, антонимами и фразеологизмами в процессе чтения студенты получают возможность четко и свободно выражать свои мысли. Этот процесс также укрепляет их коммуникативные навыки и развивает социальные способности. В результате, лексически богатые учебные материалы имеют значительное значение для повышения общего развития студентов и эффективности учебного процесса.

Ключевые слова: Учебные материалы, лексическое богатство, образовательный процесс, студенты, грамотность, языковые навыки, психология, рекомендации для учителей, инновационные подходы, интерактивные методы обучения.

Bilamizki, o‘quv materiallarining leksik jihatdan boyligi ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Leksika, ya’ni so‘z boyligi, o‘quvchilarning tilni tushunish va ifodalash qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Leksik boylikka biror bir til yoki nutqda mavjud bo‘lgan so‘zlar, ifodalar, sinonimlar, antonimlar va boshqa leksik birliklarning to‘plami sifatida qaraladi. U tilning qanchalik boy va rang – barang ekanligini, shu bilan birgalikda, til o‘rganuvchilarning yoki nutq foydalanuvchilarining so‘z boyligini ham ifodalaydi. **Leksik boylikni oshirish uchun avval leksik birlik nima ekanligini bilib olishimiz zarur.** Leksik birlikning aniq bir tasnifi yo‘q hisoblanadi. Lekin uni qaysi sohada foyfalani layotganiga qarab, o‘sha soha vakillari o‘z tasniflarini berishlari mumkin. Metodik tasniflangan leksik birliklar til o‘rgatish jarayonini tashkil qilishda, bajariladigan mashqlar sistemasida hisobga olinadi. Leksik ko‘nikmalarni shakllantirishning samaradorligi

tasnif sifatiga bog‘liq bo‘ladi¹.

Leksikani o‘rganishdan asosiy maqsad o‘quvchilarga chet til nutq ko‘nikma va malakalarini singdirishdir. O‘quvchilarga chet til nutq ko‘nikma va malakalarini singdirishdir. Leksik materialni egallash uch bosqichdan o‘tadi. Birinchi bosqich yangi so‘z bilan tanishishdan boshlanadi, ikkinchi bosqich tanishilgan leksikani nutq jarayonida qo‘llay boshlashga qaratiladi, ya’ni bu materialni dastlabki mustahkamlash davridir va uchinchi bosqichda esa o‘rganilayotgan so‘z nutq faoliyati turlarida ko‘nikma hamda malaka tarkibida o‘zlashtiriladi².

O‘quv materialining leksik jihatdan boyligi uning mazmuni, tuzilishi va taqdimot uslubiga bog‘liq. **O‘quv materiallarining leksik jihatdan boyligini oshirish va uning o‘quvchilarga ta’sirini kuchaytirish uchun bir qator yondashuv va metodlardan foydalaniladi.** Masalan, leksik birliklarni tinglash, ko‘rish, aytish va yozish kabi amaliy mashqlarni qo‘llash mumkin. Bunda o‘qituvchi audio materiallar, musiqa yoki qo‘shiqlar orqali yangi so‘zlarni va iboralarni eshittiradi, keyin esa o‘quvchilar eshitgan narsalarini kitob yoki rasm va videolar orqali ko‘rishadi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini bildirish uchun yangi so‘zlardan foydalanib o‘z nutqlarida ishlatishadi, bu so‘zni amalga tatbiq qilishda eng samarali yo‘l hisoblanadi. So‘zlarni muloqotda ishlatib bo‘lgach, o‘quvchilar xotira kartochkalari, gap tuzish yoki insho va esselar yozish orqali leksik birliklarni o‘zlashtiradi. Bundan tashqari, leksik boylikni oshirishda o‘z samarasini beradigan bir nechta o‘yinlar mavjud. Bularidan biri “sinonim va antonym” o‘yini: bunda doskaga so‘z yoziladi va ikkita o‘quvchi chiqib birinchisi bu so‘zning antonimiga, ikkinchisi esa sinonimiga misollar keltiradi, bu vaqtida taymer qo‘yiladi va kim birinchi bo‘lib yozib bo‘lsa rag‘batlantiriladi. Shuningdek, “Meni top” o‘yini orqali ham so‘zlarni oson va samarali o‘rgatish mumkin. Bu o‘yin orqali ham o‘quvchilar diqqatini tortish mumkin, ham so‘zlarni muloqotga tatbiq qilish orqali so‘zlarni yod oldirish mumkin. Bu o‘yin quyidagicha qilinadi: doskaga bir o‘quvchi chiqariladi, o‘quvchi ortiga qaramay turadi, bu vaqtida o‘qituvchi doskaga bitta so‘z yozadi. Qolgan o‘quvchilar uni ta’riflaydilar, ya’ni “Sen shunaqasan”, “Sen shu sifatida ishlatilasan” yoki “Senda u bor” kabi. Ushbu o‘yinlar o‘quvchilarning leksik boyligini oshirishda qiziqarli hamda foydali usullar bo‘lib, o‘rganish jarayonini yanada zavqli o‘tkazishga yordam beradi.

Bundan tashqari, o‘quv materiallarining leksik jihatdan boyligi o‘quvchilarga ham bir qator ijobiylar ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi o‘rinda, tilni rivojlantirishga asos

¹ Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012. 156-b.

² Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012. 158-b.

bo‘ladi, ya’ni leksik jihatdan boy materiallar o‘quvchilarga yangi so‘zlar va iboralarni o‘rganish imkonini beradi, bu esa til ko‘nimalarini oshiradi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravon ifodalay olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, natijada muloqotchanlik samaradorligi ko‘tariladi. Murakkab leksik birliklar va kontekstda ishlatilgan so‘zlar esa tilni o‘rganayotgan bolalarga matnlarni yanada chuqurroq tushunishida yordam beradi. Bunga qo‘sishimcha ravishda, eng muhimi esa yangi va qiziqarli fraza va iboralar o‘quvchilarning tilni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, chunki ular yangi bilimlarni amaliyotda qo’llash imkoniyatlarini ko‘radi, turli metodlar orqali o‘z nutqi davomida ishlatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quv materialining leksik jihatdan boyligi ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Chunki leksik boy materiallar o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish, tushunish darajasini oshirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Buning uchun esa yangicha, mavzuga mos o‘yin va metodlardan foydalanib dars jarayonini tashkil qilish lozim. Bundan tashqari, o‘quv materiallarining leksik boyligi o‘quvchilarning til o‘rganishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, til ko‘nikmalarini shakllantirish va muloqot faoliyatini rivojlantirishda alohida o‘ringa ega. Ta’lim tizimida leksik boylikni oshirish uchun o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari o‘z materiallarini doimiy ravishda yangilab, boyitishlari lozim. O‘quv materialini boyitish, o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga va ularning kelgusidagi muvaffaqiyatlariga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliv o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012. 156,158,160-bet
2. С. Ф. Шатилов. Методика обучения немецкому языку в средней школе. — Л.: Просвещение, 1977, 97-bet.
3. Dehkhonova, G. A. (2024). THE CLASSIFICATION OF LEXICAL UNITS WITH FINANCIAL POSITION ACCORDING TO SCIENTISTS VIEW. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 542-549.
4. Sobirova, M. Y. (2024). ONA TILI TA’LIMI JARAYONIDA DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 123-127.
5. Sobirova, M. (2024). DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH COMPETENCE OF STUDENTS. International journal of artificial intelligence, 4(03), 596-600.
6. O‘G‘Li, O. A. K. (2024). O’ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARI O’RTASIDAGI LINGVOKULTUROLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARNING MAZMUNI VA ULARNING AMALDA QO’LLANILISHI. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 801-805.

7. Komiljon o‘g, O. A. Y. (2024). GENERAL CHARACTERISTICS OF AMERICAN ROMANTICISM. TADQIQOTLAR. UZ, 32(2), 85-91.
8. Komiljon o‘g, O. A. Y. (2024). METHODS OF EFFECTIVE DEVELOPMENT OF LISTENING SKILLS IN STUDENTS WHO DO NOT MAJOR IN A FOREIGN LANGUAGE. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(12), 554-558.
9. Egamberdiyeva, S. (2024). ALLA JANRI SPETSIFIKATSIYASI VA TASNIFLANISHI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(7), 117-126.
10. Mamajonovna, E. S. (2024). UMUMTURKIY TILLAR ALLALARIDA ALLITERATSIYA VA ASSONANS. TADQIQOTLAR, 32(2), 46-50.